JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 13 - may 112-3-53-Q/24 Forish tuman hokimligi

Forish tumani ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, tezlikni cheklovchi yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 04-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli qarorining ijrosini ta’minlash bo‘yicha yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida tezlikni cheklovchi yo‘l belgilari tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi, Jamoat xavfsizligi xizmati, Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 17-fevraldagi 10/6-380-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Forish tumani “Egizbuloq”, “Oqtom” MFYlar hududidagi ichki yo‘llarga ilovaga muvofiq “Yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat etilsin.

3. Tuman “Obodonlashtirish boshqarmasi” rahbari (X.Jo‘raqulov) “Egizbuloq”, “Oqtom” MFYlar hududdidagi ichki yo‘llarga ilovaga muvofiq “Yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilari o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB (T.Muqimov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov va tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Q.Nazarov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.S.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2024-yil 13-maydagi
112-3-53-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Forish tumani “Oqtom”, “Egizbuloq” MFYlar hududidagi ichki yo‘llarga “Yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgisi o‘rnatish dislokatsiyasi

№	MFY nomi	Obyekt nomi	Tomoni	Joylashtirish Joylari	Yo‘l belgisi nomi
1	Oqtom MFY	4R36 Avtomobil yo‘li	O‘ng tomon	PK 27-00	3.24. Yuqori tezlik cheklangan
2	Egizbuloq MFY	4R36 Avtomobil yo‘li	O‘ng tomon	PK 32-00 PK 38-00	3.24. Yuqori tezlik cheklangan
3	Egizbuloq MFY	4R36 Avtomobil yo‘li	Chap tomon	PK 35-00 PK 37-00 PK 40-00	3.24. Yuqori tezlik cheklangan